

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

BUXORO MUHANDISLIK TEXNOLOGIYA INSTITUTI

«Axborot texnologiyalari» kafedrasi

5111000 – Kasb ta`limi («Informatika va axborot texnologiyalari») ta`lim yo'naliishi bo'yicha

«Mantiqiy qurilmalar tizimlari va sxemalarini dasturlash fanining elektron MOODLE papkasini yaratish» mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Bajardi:

**10-13 MIAT guruhi talabasi
Rabbanayeva M.**

Rahbar:

k.o'q. Narziyev U.Z.

Himoyaga ruxsat etildi
“ ” 2017y.

Kafedra mudiri:

dots. Yo'ldoshev Sh.S.

BUXORO - 2017

ö'lch	varaq	Hujjat №.	imzo	sana	Mantiqiy qurilmalar tizimlari va sxemalarini dasturlash fanining elektron MOODLE papkasini yaratish	bet
Rahbar	Narziyev U.Z.					
Talaba	Rabbonayeva M.					1

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB NAZARIY QISM.....	6
1.1. Moodle tizimi haqida umumiylar	7
1.2. Asosiy terminlar izohi.....	10
1.3. Kurs interfeysi	20
II BOB ASOSIY QISM	27
2.1. Moodle foydalanuvchisi uchun tavsiyalar.....	28
2.2. Sxemalarni loyihalash mavzusining izohi.....	42
III BOB HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI.....	48
3.1. Mikroiqlimning inson organizmiga ta`siri	49
3.2. Korxonalarni loyihalash va qurishda yong'inga qarshi kurash tadbirlari.....	55
XULOSA.....	61
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	62
ILOVALAR.....	63

ö`lch	varaq	Hujjat №.	imzo	sana	Mantiqiy qurilmalar tizimlari va sxemalarini dasturlash fanining elektron MOODLE papkasini yaratish	bet
Rahbar	Narziyev U.Z.					
Talaba	Rabbonayeva M.					

KIRISH

Jamiyatni komp'yuterlashtirish, axborot texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha vazifalarni hal etish uchun O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining «Komp'yuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida»gi Farmoni va Vazirlar Mahkamasining shu to'g'risidagi qarorlaridan kelib chiqib, oliy ta'lim jarayoni sifatini va samaradorligini yanada oshirish maqsadida barcha oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayonida yangi axborot texnologiyalari yutuqlarini joriy etish vazifalarini belgiladi.

Alovida inobatga olish joizki, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimov "Barkamol avlod yili" Davlat dasturida ta'lim jarayoniga yangi axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni, elektron darsliklar, multimedia vositalarini keng joriy etish orqali mamlakatimiz kasb-hunar kollejlari, litseylari va oliy o'quv yurtlarida o'qitish sifatini tubdan yaxshilash, ta'lim muassasalarining o'quv-laboratoriya bazasini zamonaviy turdag'i o'quv va laboratoriya uskunalarini, komp'yuter texnikasi bilan mustahkamlash zarurligi asosiy vazifalardan biri etib belgilangan [1].

Shu vazifalarni davom ettirgan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miramanovich Mirziyoyevning "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori chiqdi (2017 y 20-fprel)[2].

2017-2021 yillarda Oliy ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish dasturi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 21 maydagi PQ-1533-sonli qarori bilan tasdiqlangan 2011-2016 yillarda Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari dasturi doirasida olib kiriladigan zamonaviy o'quv-laboratoriya, ilmiy-laboratoriya va kompyuter uskunalarini, sarflanadigan laboratoriya materiallari (butlovchi materiallar, reaktivlar, kimyoviy idish, biologik materiallar va ob'ektlar), dasturiy mahsulotlar, Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan ro'yxat bo'yicha xorijiy o'quv va ilmiy-metodik adabiyotlar bojxona to'lovlaridan (bojxona rasmiylashtiruvi yig'imlari bundan mustasno).[2]

Shu o'rinda oily o'quv yurtlarida «Mantiqiy qurilmalar tizimlari va sxemalarini dasturlash» fanini o'qitishda Moodle tizimidan foydalaniib, kontet resurslarni yaratishni o'z oldimga maqsad qilib, uni ishlab chiqishga harakat qildim.

Slch	varaq	Hujjat №.	imzo	sana	Mantiqiy qurilmalar tizimlari va sxemalarini dasturlash fanining elektron MOODLE papkasini yaratish	bet
Rahbar	Narziyev U.Z.					
Talaba	Rabbonayeva M.					3

Ushbu kursda “Mantiqiy qurilmalar tizimlari va sxemalarini dasturlash” bo’limi mavzulari bo’yicha maruzalar, tajriba va amaliy mashg’ulotlar, glossarir, virtual ko’rgazmalar, test nazorati kabi content resurslar yaratilgan.

Masalaning qo`yilishi. Yaratilayotgan o’quv kurs oily o’quv yurtlarida o’tiladigan «Mantiqiy qurilmalar tizimlari va sxemalarini dasturlash» fanining o’quv dasturiga mos kelishi zarur. Fan bo’limlariga oid mavzularni to’liq qamrab olishi, har bir mavzu bo’yicha virtual ko’rgazmalar, glossariy, tajriba va amaliy mashg’ulotlar, test savollari ishlab chiqilishi kerak. Bundan tashqari foydalanuvchi uchun dasturning ishlatilishi tushunarli, sodda bo`lishi va o`quv jarayoniga uni qo`llanilishi talab etiladi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi. Moodle masofaviy ta’lim tizimining strukturaviy tuzilishini o’rganish va Moodle tizimi yordamida “Mantiqiy qurilmalar tizimlari va sxemalarini dasturlash” fani bo’yicha onlayn o’quv kursini yaratishdan iborat.

Bu maqsadga erishish uchun quyidagi masalalarni yechish kerak:

- Moodle masofaviy ta’lim tizimining strukturaviy tuzilishini o’rganish;
- Moodle tizimida ishlash imkoniyatlarini o’rganish;
- “Axborot jarayonlarining dasturiy ta’minoti” bo’limi bo’yicha multimediali elektron o’quv kursini yaratish;

Bulardan tashqari, kursning kontet resurslarini yaratishda zaruriy dastur vositalarini qo`llash orqali ularda ishlash ko`nikmalarini oshirish va bajarilgan ishni o`quv jarayoniga tadbiq etishdir.

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi vaqtida axborotli kommunikasion tarmoqlar, shu jumladan internet-foydalanuvchilar sohasi, foydalanuvchilari bilan o’zaro interaktiv aloqa istiqbolli hisoblanadi. 2003 yilda ADL tashabbuskor guruhi internet-texnologiyada keng qo’llanilishga mo’ljallangan Sharable Content Object Reference Model (SCORM) masofaviy interaktiv ta’lim standartini ishlab chiqishni boshladi.

Standartlarni kiritish masofaviy ta’lim tarkibidagi talablar kabi, dasturiy ta’minot talablarini ham osonlashtiradi. Hozirgi vaqtida ko’plab masofaviy ta’lim xizmatlarini beradigan ta’limni boshqarish tizimlari mavjud.

Mashhur ta’limni boshqarishga asoslangan tizimlarga quyidagi tizimlarni kiritish mumkin: Moodle, ILIAS, aTutor, Blackboard Learning System, CCNet, Claroline, Desire2Learn, Dokeos va boshqalar. Biz bu ishda Moodle tizimi bilan ish olib bordik.

Slch	varaq	Hujjat №.	imzo	sana	Mantiqiy qurilmalar tizimlari va sxemalarini dasturlash fanining elektron MOODLE papkasini yaratish	bet
Rahbar	Narziyev U.Z.					
Talaba	Rabbonayeva M.					

Ta’lim jarayonini takomillashtirish jarayonlari amalga oshirilayotgan bir vaqtida masofaviy o’qitish jarayoniga ham juda katta e’tobor berilmoxda, jumladan hozir masofaviy ta’lim tizimlari asosida ta’lim vazirliklari, oliy o’quv yurtlari o’zlarining virtual ta’lim tizimlarini yaratib, shu asosda ta’lim jarayonini tashkillashtirmoqda. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda keng tarqalgan ochiq kodli Moodle platformasida o’quv kurslari uchun “Mantiqiy qurilmalar tizimlari va sxemalarini dasturlash” fani bo’yicha multimediali elektron o’quv kursini yaratish masalasi ko’rib chiqilgan.

Ishning tarkibi. Kirish qismida bitiruv malakaviy ishning mavzusi, masalaning qo`yilishi, uning dolzarbligi, maqsadi va vazifalari, amaliy qo`llanilishi, undan kutilayotgan natijalar hamda ishning tarkibi to`g’risida gap boradi.

I – Bob. Moodle tizimi va uning imkoniyatlari – bu bobda moodle tizimi haqida umumiy ma’lumotlar, moodle tizimini o’rnatish, kurs resurslari bilan ishlash, kursni tahrirlash aytib o`tilgan.

II – Bob. Moodle tizimida “Mantiqiy qurilmalar tizimlari va sxemalarini dasturlash” fani bo’yicha kurs yaratish texnologiyasi deb nomlanadi. Ushbu bob bitiruv malakaviy ishning asosiy qismi bo`lib, unda Moodleda kursni yaratish, kursda nazorat shakllari, moodle platformasiga amaliy va “Mantiqiy qurilmalar tizimlari va sxemalarini dasturlash” fanining laboratoriya mashg’ulotlarini joylashtirish keltirilgan.

III – Bob. Hayot faoliyati xavfsizligi. Bunda mikroiqlimning inson organizmiga ta`siri, Korxonalarini loyihalash va qurishda yong’inga qarshi kurash tadbirlari haqida fikr yuritiladi.

Bitiruv malakaviy ish xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati va dastur ilovalari bilan yakun topadi.

Ølch varaq	Hujjat №.	imzo	sana	Mantiqiy qurilmalar tizimlari va sxemalarini dasturlash fanining elektron MOODLE papkasini yaratish	bet
Rahbar	Narziyev U.Z.				
Talaba	Rabbonayeva M.				5

I BOB

NAZARIY

QISM

ö'lch varaq	Hujjat №.	imzo	sana	Mantiqiy qurilmalar tizimlari va sxemalarini dasturlash fanining elektron MOODLE papkasini yaratish	bet
Rahbar	Narziyev U.Z.				
Talaba	Rabbonayeva M.				6

1.1. Moodle tizimi haqida umumiy ma'lumotlar

Moodle- bu muvafaqiyat bilan ishlatala yotgan va uzluksiz takomillashib bora yotgan loyihadir. Uning asoschisi va avtori G'arbiy Avstralalyalik Martin Dougiamasdir. U 23 yildan zi yodroq davrda ta`limda axborot texnologiyalaridan foydalanish muammolari bilan shug'ullangan va Internet bazasida masofaviy kurslar yaratish imkoniyatini beradigan ochiq kodli dasturiy tizimni yaratish bo'yicha dissertatsiya himoya qilgan. Martin Dougiamas Moodle tizimini yaratishni 1999 yilda boshlagan. Tizimning birinchi versiyasi 2002 yilning avgustida ishga tushirilgan edi. Shundan bu yon bu loyiha kengayib va rivojlanib bormoqda [4].

Moodle ochiq kodli (*Open Source*) dasturiy ta`minot sifatida *GNU Public License* bilan tarqatiladi. *Moodle* o'qitishni boshqarish tizimlari (*Learning Management System*) sinfiga tegishli bo'lib, ko'pchilikning birgalikda foydalanishiga imkon beruvchi *online* o'quv materiallarni ishlab chiqish, boshqarish va tarqatish uchun xizmat qiladi. Ushbu o'quv materiallar vizual o'quv muhitda o'rganish ketma-ketmaligini saqlagan holda yaratiladi.

Hozirgi vaqtda dun yoning 193 mamlakatining etakchi universitetlarida *Moodle* tizimi asosida masofaviy ta`lim tashkillashtirilgan. Programma 75 tilga, shu jumladan rus va o'zbek tillariga ham tarjima qilingan. *Moodle* dasturiy ta`minoti bilan ishla yotgan ta`lim muassasalarining Internetdagi rus tilidagi saytlari soni 250 tadan zi yod.

Moodle masofaviy o'qitish tizimi (MO'T) o'zida jamoa bo'lib ishslash va faol o'quv muhitini birlashtiruvchi ijtimoiy konstruktivizm pedagogikasiga binoan loyihalashtirilgan.

Moodle — Web muhitida o'qitish va online rejimdagi darslarni tashkil qiluvchi kuchli pedagogik dasturiy majmua hisoblanadi. Tizimda mavjud o'qitish modullari: Forums, Materials, Messenger, Chat, Exercises, Group work, Student tracking va ancha ko'p bo'lgan boshqa modullari mavjud.

Boshqa LMS'lar singari IMS, SCORM va boshqa standartlarni qo'llab-quvvatlaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, boshqa LMS tizimlarga qaraganda, eng

Sh. Ich	Varaq	Hujjat №.	imzo	sana	Mantiqiy qurilmalar tizimlari va sxemalarini dasturlash fanining elektron MOODLE papkasini yaratish	bet
Rahbar	Narziyev U.Z.					
Talaba	Rabbonayeva M.					

ko‘p qo‘shimcha plugin va modullari mavjud bo‘lgan dasturiy majmua aynan, Moodle dasturiy majmuasi hisoblanadi. Hozirgi vaqtida dunyoning ko‘p davlatlarining o‘quv muassasalarida masofaviy ta’lim jarayonini aynan Moodle dasturiy majmuasidan foydalangan holda tashkillashtirilmoqda.

Ro‘yxatdan o’tgan foydalanuvchilar soni	86277
Davlatlar	237
Kurslar	7802594
Foydalanuvchilar	73052135
O‘qituvchilar	1297013
O‘quvchilar kontingenti	76154065
Resurslar	69440017

1-Jadval. Moodle bo‘yicha statistika (2013-yil 13.08.gacha bo‘lgan ma’lumotlar)

Shuningdek, O‘zbekistondagi ko‘plab ta’lim muassaslarida virtual ta’lim muhiti sifatida aynan Moodle dasturiy majmuasi foydalanib kelinmoqda. Xususan, Toshkent axborot texnologiyalari universitetining virtual ta’lim muhiti — etuit.uz, O‘zbekiston Milliy universitetining «Ochiq o‘quv-axborot markazida», Xalq ta’limi vazirligi qoshidagi «Multimedia umumta’lim dasturlarini rivojlantirish markazi» — <http://moodle.uzedu.uz>, Toshkent Turin Politexnika universitetida — moodle.polito.uz va boshqa muassasalarda keng foydalanib kelinmoqda[14].

Moodle imkoniyatlari

O‘qituvchi Moodledan foydalanib o‘z kursini yaratishi, uni matn, yordamchi fayllar, prezentatsiyalar, so’rovnomalar va boshqa xil shakldagi materiallar bilan to’ldirib borish imkoniyatiga ega. Kursning har bir modulidan so’ng oraliq nazorat testi o’tkazilishi mumkin. Talabalarning topshiriqlarni bajarish natijalariga asosan o‘qituvchi baholar qo‘yishi va javoblarga izohlar berishi mumkin. Boshqacha aytganda, *Moodleni* o‘quv materialiini yaratish va o‘quv jara yoni ishtirokchilari o‘rtasida interaktiv aloqani ta``minlashga xizmat qiladigan bir markaz deyish

ö`lch	varaq	Hujjat №.	imzo	sana	Mantiqiy qurilmalar tizimlari va sxemalarini dasturlash fanining elektron MOODLE papkasini yaratish	bet
Rahbar	Narziyev U.Z.					
Talaba	Rabbonayeva M.					

mumkin. *Moodle* o'qituvchiga nafaqat talabalar bilan teskari aloqani samarali ravishda tashkillashtirish va ularning bilimini baholash, balki ma`ruza materiallari va amaliy mashg'ulotlar tuzilmasini osongina o'zgartirish uchun vositalar taqdim etadi.

Saytni boshqarish

Sayt administrator tomonidan boshqariladi. Saytni ishga hozirlashning asosiy xarakteristikalari uni kompyuterga o'rnatish jara yonida aniq ko'rsatiladi. Keyinchalik saytning tashqi ko'rinishi va dastur versiyasi o'zgartirilishi mumkin. Shuningdek, qo'shimcha modullar va pluginlar yordamida saytning imkoniyatlarini kengaytirish mumkin.

O'quv jara yonining barcha qatnashchilarining imkoniyatlari

- Kursda qatnashuvchilar o'zlari uchun qayd etish yozuvlarini yaratishlari mumkin;
- Foydalanuvchi keyinchalik o'zi haqidagi ma'lumotlarni (ismu sharifi, parol va boshqalar) o'zgartirishi muminn;
- Har-bir foydalanuvchi o'zining vaqt zonalarini ko'rsatishi mumkinn bo'lib, ular tizimda ixti yoriy sanalarni yozishda hisobga olinadi.
- Har bir foydalanuvchiga tizim interfeysi tilini tanlash imkoniyati berilgan.

O'qituvchilar imkoniyatlari

- o'qituvchi kurs bo'yicha to'liq nazorat vositalariga ega: ishga hozirlash xarakteristikalarini o'zgartirish, kurs mazmunini o'zgartirish, o'qitish;
- Har bir kurs elementlarning (resurslar, forumlar, testlar, topshiriqlar, gossariy, so'rovlardan, anketalar, chatlar, ma'ruzalar, seminarlar, wi-ki, ma'lumot bazalari, SCORM ob`ektlar) turli xil naborlarini o'z ichiga olishi mumkin;
- Talabalar topshiriqlarni bajarib bo'lgach, ularning barcha baholari yagona jurnalga yig'iladi va bu jurnal yakunlash ishlarini bajarish, har

Slch	varaq	Hujjat №.	imzo	sana	Mantiqiy qurilmalar tizimlari va sxemalarini dasturlash fanining elektron MOODLE papkasini yaratish	bet
Rahbar	Narziyev U.Z.					
Talaba	Rabbonayeva M.					9

xil hisobotlar tuzish va ulardan foydalanishning qulay mexanizmlariga ega;

- Turli bloklarning (kalendar, yangiliklar, kutila yotgan hodisalar va boshqalar) mavjudligi tizimning faoliyat darajasini va undan foydalanish qulayligini oshiradi;
- Kurs qatnashchilarining faolligini hisobga olish va kuzatib borish tizimi mavjud bo'lib, u ixti yoriy paytda talaba faolligi haqida kurs bo'yicha to'liq va uning qismlari bo'yicha alohida ma'lumotlarni olish imkonini beradi;
- Elektron pochta bilan integrallashuv tufayli forum xabarlarini tarqatish, o'qituvchi izohlarini boshqa xil o'quv materiallarini talbalarga etkazish imkoniyatlari mavjud.

1.2. Asosiy terminlar izohi

Qayd etish yozuvi (Account) – bu ma'lumotlar bazasidagi yozuv bo'lib, foydalanuvchi haqidagi to'liq ma'lumotlarni o'z ichiga oladi: familiyasi, ismi, login, parol, elektron pochta manzili.

Rol (Role) – foydalanuvchining Moodledegi kursga yozilish paytida unga berilgan (ta'minlangan) vakolatlari nabori:

- **Administrator (Administrator).** Moodle tizimni sozlash va barcha kurslar bo'yicha to'liq imti yozlar berilgan foydalanuvchi;
- **Kurs yaratuvchi** Создатель курса (Course creator). Kurs yaratish, o'qituvchi/assistantlar tayinlash, yashirin kurslarni ko'ra olish vakolatlariga ega foydalanuvchi;
- **O'qituvchi** Преподаватель (Teacher). Kurs materiallarini kiritish, tahrirlash va uni boshqarish (qatnashuvchilar ro'yxatini boshqarish, ishlarni tekshirish, baholarni qo'yish) vakolatlariga ega foydalanuvchi;
- **Assistent (Non-editing teacher).** Faqat kurs materiallarini tahrirlash vakolati berilmagan O'qituvchi;
- **Student (Student).** Kursni o'rganish imkoniyatlari berilgan

Slch	varaq	Hujjat №.	imzo	sana	Mantiqiy qurilmalar tizimlari va sxemalarini dasturlash fanining elektron MOODLE papkasini yaratish	bet
Rahbar	Narziyev U.Z.					
Talaba	Rabbonayeva M.					

foydanuvchi;

- **Mehmon Гостъ (Guest).** Kursning ba`zi materiallarni faqatgina ko'rish imkoniyatlari berilgan, lekin ular bilan ishslash vakolatlari berilmagan foydanuvchi[].

Kurslarning toifasi Kategorii kursov (Kafedrъ)

Moodle tizimida kurslar toifalari daraxtsimon tuzilmaga ega[5].

Kurs (Предмет) – Moodle tizimidagi o'quv muhiti bo'lib, uning tarkibiy elementlari o'qituvchilar va assstantlar, tinglovchilar va o'quv materallaridan iborat. Kurslar *administrator* yoki *kurs yaratuvchi* tomonidan o'qituvchi hvmda assstantlar tayinlagan holda yaratiladi.

Modul (Module) Moodle tizimining dasturiy kengaytmasi bo'lib, yangi faoliyat turlarini hosil qilishga mo'ljallangan. Moodle tizimida *modullarning* quyidagi turlari mavjud:

- kurs elementi;
- topshiriq turi;
- savol turi;
- blok;
- filtr;
- kurs formati;
- kurs qatnashchilari.

Kurs elementi Элемент курса (*Activity module*) - kurs tarkibidagi interaktiv o'quv moduli.

Tizimga qo'yiladigan talablar.

Moodle tizimida ishslash uchun Internet-ulanish mavjud bo'lishi kerak. Ulanish tezligining tavsiya etilgan miqdori: 512 Kbit/sek va undan yuqori. Tavsiya etilgan operatsion tizimlar: *Windows XP* va uning keyingi versiyalari, *Macintosh*, *Linux*. Tavsiya etilgan brauzerlar: *Chrome* yoki boshqalar: *Internet Explorer 6.0* va uning keyingi versiyalari, *Mozilla Firefox*, *Opera*. Brauzerlar nastroykasida *Javascript* stsenariylarining bajarilishiga ruxsat etilishi zarur. Hujjalarni uchun quyidagilar

Slch	varaq	Hujjat №.	imzo	sana	Mantiqiy qurilmalar tizimlari va sxemalarini dasturlash fanining elektron MOODLE papkasini yaratish	bet
Rahbar	Narziyev U.Z.					
Talaba	Rabbonayeva M.					

zarur: Adobe Reader yoki unga o'xshash boshqa vosita, *MS Office* dasturlari (*Word, Excel, PowerPoint* va boshqalar) yoki *Open Office* dasturlari. Multimediaga aloqador vazifalarni bajarish uchun *QuickTime* va *Flash player* dasturiy vositalar zarur. Moodle tizimida foydalanuvchi o'zini qayd etish uchun elektron pochta mavjud bo'lishi talab etiladi.

Tashqi ko'rinish

Bosh sahifa

Moodle masofaviy o'qitish tizimiga kirish uchun internetga ulangan kompyuterda brazerning manzil yoziladigan satrida <http://moodle.samtatu.uz> manzilni terish kerak. Tizimga kirish bilan uning bosh sahifasi ochiladi. Sayt bilan tanishuv uning interfeysi o'rganishdan boshlanadi.

Foydalanuvchi interfeysi

Moodle tizimining interfeysi saytning tashqi ko'rinishini belgilash uchun *adminstrator* tomonidan tanlangan shablon asosida shakllantirilib, xususan, quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- Saytning to'liq nomi
- Til tanlovi
- *Kurslar toifasi blogi*
- Blok: *sayt yangiliklari*
- Blok: *Navigatsiya*
- Blok: *Kirish*

Bosh sahifaning interfeysi *adminstrator* tomonidan maqsad va vazifalardan kelib chiqib o'zgartirilishi mumkin. Odatda, uning yuqori qismida saytning to'liq nomi yoziladi. Har bir foydalanuvchiga interfeys tilini tanlashga imkoniyat beriladi.

Kurs toifalari blogida kurslarning mavjud toifalar bo'yicha ro'yxati beriladi. Kurslarning toifalanishi tizim adminstratori tomonidan bajariladi. Universitetdagi barcha kurslarni kafedralar bo'yicha toifalash maqsadga muvofiq. Toifalash kurslar ro'yxatini taqdim etish shaklini kerakli kurs osongina topiladigan qilib tanlashga imkoniyat beradi. Tinglovchi o'ziga kerakli kursni qidirish satridan foydalanib topishi ham mumkin.

Slch	varaq	Hujjat №.	imzo	sana	Mantiqiy qurilmalar tizimlari va sxemalarini dasturlash fanining elektron MOODLE papkasini yaratish	bet
Rahbar	Narziyev U.Z.					
Talaba	Rabbonayeva M.					12

Navigatsiya blogi saytning muhim qismlarini tez topish va ularga tez o'tish vazifasiga xizmat qiladi.

Sayt yangiliklarii blogi turli xabarlarini birdaniga barcha foydalanuvchilarga yuborish uchun xizmat qiladi. Yangiliklarni saytga joylashtirish huquqi faqat adminstratorga, ko'rib chiqish huquqi esa barcha foydalanuvchilarga berilgan. Bosh sahifada bittadan o'ntagacha yangilik joylashtirish mumkin.

Kirish blogi qayd etilgan foydalanuvchilarning tizimga kirishi uchun ishlataladi. Foydalanuvchini tizimga kirishi uchun uning *qayd etish* yozuvi shakllantirilgan bo'lishi kerak.

Foydalanuvchining qayd etish yozuvi

Qayd etish

Moodle tizimiga birinchi bor kirishda qayd etish protseduralarini bajarish tavsiya etiladi, chunki qayd qilinmagan foydalanuvchilarning tizimda ishlash imkoniyatlari cheklangan bo'ladi. Ularga bosh sahifada berilgan ma'lumotlarni ko'rish va mehmon foydalanuvchilarga ruxsat etilgan resurslardan foydalanish huquqi berilgan. Mehmonlarga ochiq kurslarni belgilash uchun ularning nomini yozishda maxsus belgi qo'yiladi. Saytga kirish va undan foydalanishda keng imkoniyatlarga ega bo'lish uchun foydalanuvchi o'zini tizimda qayd etishi zarur.

Qayd etish yozuvini yaratish

Qayd etish jara yoni ikki bosqichdan iborat. Birinchisi – qayd etishning o'zi bo'lsa, ikkinchisi - qayd etilganlikni tasdiqlashdir. Foydalanuvchi qayd etilganini tizim tasdiqlagandan keyingina u o'z nomi va paroli bilan tizimga kirishi mumkin.

Saytga qaytish

Saytga kirish
(Cookies Sizning brauzeringizda ruxsat etilgan bo'lishi kerak) ⓧ

Foydalanuvchi nomi: Parol: Kirish

Remember username

Login yoki parolini unutdingizmi?

Ba'zi kurslarga mehmon bo'lib kirish mumkin.

Mehmon bo'lib kirish

Qayd etish jara yonida foydalanuvchining *qayd etish yozuvi* yaratiladi. Bu – foydalanuvchi tomonidan kompyuter tizimiga o'zi haqida beriladigan ma'lumotlardan iborat yozuvdir. Saytda qayd etish uchun bosh sahifaning o'ng

Yilch varaq	Hujjat №.	imzo	sana	Mantiqiy qurilmalar tizimlari va sxemalarini dasturlash fanining elektron MOODLE papkasini yaratish	bet
Rahbar	Narziyev U.Z.				
Talaba	Rabbonayeva M.				13

qismida joylashgan *Kirish* oynasidagi *Qayd etish yozuvini yaratish* sichqoncha orqali bosiladi. Natijada so'rovnomanidan iborat sahifa paydo bo'ladi. So'rovnomaning to'ldirilishi shart bo'lgan maydonlariga ma'lumot kiritilgach *Saqlash* tugmasi bosiladi. Login va parol lotin simvollari va/ yoki raqamlardan iborat bo'lishi kerak. Login sifatida talabaning reying daftarchasi nomerini kiritish va ism, familiya va shahar nomlarini krill simvollari bilan yozish tavsiya etiladi. Elektron pochta manzili yagona bo'lishi va takrorlanmasligi kerak. Bir elektron manzilni bir necha foydalanuvchilar birgalikda ishlatsi mumkin emas.

To'g'ri to'ldirilgan so'rovnoma saqlanganidan so'ng tizim qayd etiishni tasdiqlovchi xat ko'rsatilgan elektron manzilga yuborilganligini xabar beradi. Foydalanuvchi elektron pochtasini ochib, manzil o'zi anketani to'ldirishda ko'rsatgan elektron pochta manzili bilan mos ekanligiga ishonch hosil qilishi kerak. Qayd etishni tasdiqlovchi xat biroz kechikib kelishi mumkinligini unutmaslik zarur. Agar elektron manzil to'g'ri ko'rsatilgan va xat kelib tushishi bilan bog'liq muammolar bo'lmasa, 5-10 minut ichida *Moodle* administratoridan -??????podtverjdenie akkaunta || mavzu bilan yuborilgan xat kelib tushishi kerak. Xatni ochib, unda ko'rsatilgan manzilga o'tish zarur. Qayd etish tasdiqlanishi bilan «Registratsiya podtverjdena» sahifa paydo bo'ladi.


Tizimga kirish

Qayd etish bajarilgandan keyin foydalanuvchi saytga har safar kirganida

Yech varaq	Hujjat №.	imzo	sana	Mantiqiy qurilmalar tizimlari va sxemalarini dasturlash fanining elektron MOODLE papkasini yaratish	bet
Rahbar	Narziyev U.Z.				
Talaba	Rabbonayeva M.				14

-*Kirish (Bxod)*|| oynasida o'z login va parolini terib identifikatsiyadan o'tishi kerak. Shundan so'ng saytning bosh sahifasining

-*Navigatsiya*|| blogida foydalanuvchi yangi imkoniyatlar ochiladi.



«*Mening profilim* (Мой профиль)» bo'limida foydalanuvchi o'z profili haqida ma'lumotlarni, forum xabarlarini, shaxsan o'ziga yuborilgan xabarlarni, yozishmalar tarixini va boshqa xil ma'lumotlarni ko'rishi mumkin.

-*Mening kurslarim* (Мои курсы)|| bo'limi foydalanuvchi a`zo bo'lgan kursni tez topib olishga imkon beradi. Buning uchun -*Moi kursyl*|| ko'rsatkichiga sichqoncha tugmasi bilan bosilsa, tizim foydalanuvchi a`zo bo'lgan barcha kurslar ro'yxatini chiqarib beradi.

«*Xabarlar* (Сообщения)» blogida foydalanuvchi kelib tushgan xabarlarni ko'rishi yoki o'zi boshqa foydalanuvchilarga elektron xabarlar yuborishi mumkin. *Moodlening* boshqa foydalanuvchilari bilan aloqa o'rnatish uchun foydalanuvchi -*Mening hamsuhbatlarim* (Мои собеседники)|| nomli ro'yxat shakllantirib olishi mumkin. Bunday ro'yxatni yaratish uchun

«*Foydalanuvchilar va xabarlarni qidirish* (Поиск пользователей и сообщений)» oynachasi orqali foydalanuvchi o'ziga kerakli ism va/ yoki familiyani yoki biron bir jumlanı yozadi. Shundan so'ng tizim kiritilgan ismu familiyali foydalanuvchilar yoki tarkibida kiritilgan jumla uchraydigan xabarlар ro'yxatini chiqaradi. Topilgan foydalanuvchini foydalanuvchini ro'yxatga kiritish uchun uning nomi yozushi ustiga sichqoncha tugmasini bir bosib, paydo bo'lgan -*Hamsuhbat kiritish* (Добавить собеседника)|| oynasidagi ko'rsatkichga bosish kerak.

Yech varaq	Hujjat №.	imzo	sana	Mantiqiy qurilmalar tizimlari va sxemalarini dasturlash fanining elektron MOODLE papkasini yaratish	bet
Rahbar	Narziyev U.Z.				
Talaba	Rabbonayeva M.				

-*Kengaytirilgan (Расширенный)*|| nomli band bilan kerakli parametrlarni (optsiyalar) o'zgartirish mumkin.

Foydalanuvchi profilini tahrirlash (Редактирование профиля пользователя).

Foydalanuvchi o'z qayd etish yozuvini muvafaqiyatli ravishda tashkillashtirib tizimga kirgandan so'ng, sayt bosh sahifasining yuqori o'ng qismida uning nomi *giperssyilka* sifatida yozilgan bo'ladi. Ushbu giperssyilka faollashtirilsa, foydalanuvchining profili va qayd etish yozuvi aks ettirilgan oyna paydo bo'ladi.

Yozuvlarni tahrirlash uchun

«Ma'lumotlarni tahrirlash(Редактировать информацию)» nomli bandda

«Настстройки->Настстройки моего профиля» blokni siqoncha tugmasi bilan bosish kerak. Qayd etish yozuvining maydonlarining bir qismi *majburiy* va bir qismi *majburiy emas* turda bo'ladi. Yozuv yaratila yotganda foydalanuvchidan majburiy maydonlarni albatta to'ldirish so'raladi. Har ikki xil maydonlarni qayd etish yozuvini tahrirlash paytida o'zgartirish mumkin. Foydalanuvchiga qayd etish yozuvining qo'shimcha parametrlarini ham o'zgartirish imkoniyatlari berilgan. Profil parametrlarini tahrirlashning kengaytirilgan rejimiga o'tish uchun

-Qo'shimchalarni ko'rsating (Показать дополнительные)|| tugmasiga bosiladi.

Qayd etish yozuvinig majburiy maydonlari va asosiy parametrlarini ko'rib chiqamiz.



ö'lch	varaq	Hujjat №.	imzo	sana	Mantiqiy qurilmalar tizimlari va sxemalarini dasturlash fanining elektron MOODLE papkasini yaratish	bet
Rahbar	Narziyev U.Z.					
Talaba	Rabbonayeva M.					16

Ism, familiya (Имя, фамилия). Bu ma`lumotlar foydalanuvchini kursga yozilishda, nazorat ishini yoki test topshirishda va boshqa xil faoliyatda tizim tomonidan tanilishi uchun xizmat qiladi.

E-mail. Foydalanuvchining elektron pochta manzili. Tizimning va saytning boshqa foydalanuvchilarining foydalanuvchiga yo'llangan xabarlari aynan shu manzilga yuboriladi.

E-mailni ko'rsatish. Показывать e-mail. Bu parametr foydalanuvchi elektron pochta manzili boshqalarga ko'rinishi yoki ko'rinnasligini belgilaydi. *-Hammaga (Всем)»*|| tugmasi orqali barcha boshqa foydalanuvchilarga (shu jumladan, mehmonlarga ham) ko'rinishga yoki

-Faqat boshqa tinglovchilarga (Только другим слушателям)»|| tugmasi orqali faqat hamkurs foydalanuvchilarga ko'rinishga ruxsat berilishi mumkin. Yoki *-Meniing e-mailimni ko'rsatmaslik. (Не показывать мой e-mail)* tugmasi orqali ko'rinishni ta`qiqlash mumkin.

E-mail faollashtirilgan. (E-mail активирован).

Foydalanuvchining elektron manzili saytdan unga elektron xabarlar yuborish uchun ochiq yoki yopiqligini bildiruvchi parametr.

Format e-mail. Bu parametr foydalanuvchiga yuborila yotgan xabarlar formatini belgilaydi. «HTML-format» tanlansa, xabarlar faol giperssyikalar va formatlashning turli elementlari (ranglar, ramkalar, shriftlar va boshqalar) bilan birgalikda HTML formatda yuboriladi. «Tekst» - tugmasi esa xabar oddiy matn shaklida girerssilkalarsiz yuborilishini bildiradi[6].

Forumga yozilish. (Автоподписка на форум). Foydalanuvchi elektron manziliga forumlardan xabarlarning nusxalari kelib turishi mumkin/mumkin emas holatini belgilovchi parametr. Agar

«Да» tanlansa, foydalanuvchi hech bo'limganda bitta xabar yuborgan forumdan barcha yangi xabarlarning nusxalari kelib tushaveradi. Bundan anglanadiki, foydalanuvchi forumga bitta xabar yuborishi bilan unga avtomatik tarzda yozilgan bo'ladi.

№	varaq	Hujjat №.	imzo	sana	Mantiqiy qurilmalar tizimlari va sxemalarini dasturlash fanining elektron MOODLE papkasini yaratish	bet
Rahbar	Narziyev U.Z.					
Talaba	Rabbonayeva M.					17

Forumlarni kuzatib borish. (Следование за форумами). Agar bu tanlangan bo'lsa, foydalanuvchi forumlardagi o'qilmagan xabarlarni ko'rib borishi mumkin.

Matnni tahrirlash vaqtida. (Во время редактирования текста).

Bu parametr matnlar uchun *RichText Editor* vizual tahrirlash dasturini ishlatalish yoki standart veb-shakllardan foydalanish mumkinligini bildiradi. Agar «*Использовать Richtext HTML-редактор*» tanlangan bo'lsa, foydalanuvchi o'z matnlarnini *RichText Editor* dasturi orqali formatlashi mumkin bo'ladi. Bunday formatlash *Internet Explorerning 6.0* va undan yuqori versiyalari hamda *Mozilla Firefoxning 2.0* va undan yuqori versiyalaridan foydalana yotgan hollarda mumkin. Agar foydalanuvchi ishlata yotgan brauzer matnlarni *html*-redaktor orqali formatlashga imkon bermasa, u holda

«*Использовать стандартные web-формы*» tanlangani ma`qul.

AJAX i Javascript. Bu opsiya *AJAX i Javascript*ning qo'shimcha imkoniyatlaridan foydalanish mumkinligini bildiradi.

Shahar, mamlakat. (Город, страна) Bu maydonlarda foydalanuvchi shahar va mamlakatning nomi beriladi.

Vaqt zonasi. (Временная зона) Bu opsiyada ko'rsatilgan parametlar foydalanuvchining topshiriqlarni bajarish, test topshirish va boshqa xil faoliyatiga kurs rahbari (o'qituvchi) belgilagan muddatlarni foydalanuvchi joylashgan vaqt zonasiga o'tkazish uchun ishlataladi. Bu erda interfeys tili qaysi til bo'lsa, o'sha tildan foydalangan ma`qul.

Tavsifnoma. (Описание) Bu erda foydalanuvchi o'zi haqida unchalik katta bo'limgan matn orqali ma'lumot berishi mumkin. Masalan, foydalanuvchining ma'lumoti, mutaxassisligi, xobbi, kasbi va boshqa xil ma'lumotlar.

Qayd etish yozuvining yuqorida izoh berilgan asosiy parametrlaridan tashqari foydalanuvchi quyida ko'rsatilgan majburiy bo'limgan maydonlarni ham to'ldirishi mumkin.

Yech varaq	Hujjat №.	imzo	sana	Mantiqiy qurilmalar tizimlari va sxemalarini dasturlash fanining elektron MOODLE papkasini yaratish	bet
Rahbar	Narziyev U.Z.				
Talaba	Rabbonayeva M.				18

The screenshot shows a user profile form with the following sections:

- Interests**: A text input field labeled "Озиданинг руҳиас" (Enter tags separated by commas) with a placeholder "Enter tags separated by commas".
- Uncha shart emas**: A section for entering contact information with various input fields:
 - Vato-sahifa
 - ICQ (номер/телефон)
 - Skype ID
 - AIM ID
 - Yahoo ID
 - MSN ID
 - Individual гаҳдатноме/идора (муассаса) (Ташкilot)
 - Bolalar
 - Telerton
 - Mobil telefon
 - Manzil
- Слава user**: A button at the bottom left.
- Обязательные для заполнения поля в этой форме выделены**: A red note at the bottom right indicating mandatory fields.

Joriy rasm. (Текущая картинка) Bu erda foydalanuvchining hozirgi paytdagi rasmi joylashtiriladi. «*Yo'qotish (Удалить)*» maydoniga bayroqcha qo'yib, joriy rasmni olib tashlash mumkin. Foydalanuvchi o'z rasmini saytga joylashtirmagan bo'lsa, rasm joyida «*Bo'sh (Пусто)*» yozuvi turadi.

Fotografiya (Maksimal o'lchov: 128Mbait). Foydalanuvchi o'z fotografiyasini o'z kompyuteridan serverga yuklab qo'yishi mumkin. Fotografiya forumlarning xabarlarida va foydalanuvchining qayd etish yozuvida ishlataladi. U *JPG* yoki *PNG* formatida bo'lishi kerak. Fotografiya faylini serverga yuklash uchun foydalanuvchi «*Обзор*» tugmasini bosib, o'z kompyuteridan fotografiya faylini tanlashi kerak.

Web-sahifa. (Web-страница) Foydalanuvchining shaxsiy sahfasi yoki sayti.

Nomer ICQ. Foydalanuvchinin *ICQ*-nomeri uning profilida barcha foydalanuvchilarga ko'rinish turadi.

Skype ID/ AIM ID/ Yahoo ID/ MSN ID. Foydalanuvchining *Skype/AIM/Yahoo/ MSN* tizimidagi shaxsiy identifikatori uning profilida barcha foydalanuvchilarga ko'rinish turadi.

Shaxsiy nomer /Muassasa yoki tashkilot/Bo'lim/Telefon/Manzil (Индивидуальный номер/ Учреждение (организация)/Отдел/Телефон/Мобильный телефон/Адрес) Foydalanuvchi bu maydonlarga o'z ma'lumotlarini kiritishi mumkin.

Yech varaq	Hujjat №.	imzo	sana	Mantiqiy qurilmalar tizimlari va sxemalarini dasturlash fanining elektron MOODLE papkasini yaratish	bet
Rahbar	Narziyev U.Z.				
Talaba	Rabbonayeva M.				

Parolni almashtirish va qayta tiklash. (Смена и восстановление пароля).

Moodle foydalanuvchisi ixti yoriy paytda o’z parolini o’zgartirishi mumkin. Buning uchun u o’z qayd etish yozuvini ochib, «*Parolni o’zgartirish (Изменить пароль)*» tugmasini bosishi va keyin tegishli maydonlarda joriy va yangi parollarni terishi kerak. So’ngra «*Saqlash(Сохранить)*» tugmasi bosiladi. Eski parol to’g’ri kiritilgan va yangi parol xatosiz terilgan bo’lsa, foydalanuvchi saytga keyingi kirishlarida yangi parolni ishlatishi kerak. Agar foydalanuvchi o’z parolini unutib qo’ysa, uni login orqali yoki elektron pochta manzili orqali tiklab olishi mumkin. Yangi parol pochtaga yuboriladi.

1.3. Kurs interfeysi

Navigatsiya

Sayt logotipi tagida joriy sahifaning sayt ierarxik sxemasidagi joyini ko’rsatib turadigan navigatsiya paneli joylashadi. Navigatsiya panelidagi sahifalar nomlari yo’naltiruvchi ma`lumot (*ssilkalar*) sifatida joylashtirilgan bo’lib, ular yordamida sichqoncha orqali kerakli sahifaga tez o’tish mumkin.

Kurs elementlari bo’yicha navigatsiya.

Tinglovchi kurs bilan ishlayotganda kurs *elementlari bo’yicha navigatsiya* paneli yordamida avvligi yoki keyingi elementga tez o’tishi yoki menyudan kerakli elementni tanlashi mumkin.

Agar faqat topshiriqlar ro’yxatini chiqarish zarur bo’lsa, *Kurs elementlari* blogidagi “*Topshiriqlar (Задания)*” ssilkasi bo’yicha o’tiladi va tizim ushbu kursda mavjud barcha topshiriqlarni chiqarib beradi.

Kurs formati

Moodle tizimida o’quv kursi o’qituvchi tomonidan kursni ishga sozlash paytida aqinlangan formatda taqdim etiladi. Quyidagi formatlar mavjud:

SCORM — o’quv materalini tashkillashtirish standarti bo’lib, u o’quv materiali bloklari va talabaning baholari haqidagi ma`lumotlarni *Moodlega* uzatib

Yech varaq	Hujjat №.	imzo	sana	Mantiqiy qurilmalar tizimlari va sxemalarini dasturlash fanining elektron MOODLE papkasini yaratish	bet
Rahbar	Narziyev U.Z.				
Talaba	Rabbonayeva M.				20

turuvchi JavaScript koddan iborat.

Turkumlar bo'yicha bo'limlar (*Разделы по сообществам*) — bu kursni bir katta forum sifatida tashkillashtirishdir. Bu format kursni norasmiy (erkin tinglovchi sifatida) o'rganishga xizmat qilishi mumkin.

Mavzular bo'yicha bo'limlar. Bu formatda kurs bir necha alohida bo'limlarga (mavzularga) bo'linadi. Mavzular sonini o'qituvchi aniqlaydi. Har bir mavzu turli resurslar va faol elementlar bilan to'ldiriladi.

Haftalar bo'yicha bo'limlar. Bu formatda kurs o'qish boshlanish va tugash muddatlari qat'iy belgilab qo'yilgan holda haftalar bo'yicha tashkillashtiriladi. Kursdagi joriy o'quv haftasi rangdor yozuv bilan ajratilgan bo'ladi.

Asosiy bloklarga izoh. (*Обзор основных блоков*).

Moodlening o'qituvchilar va tinglovchilarga kurs bilan faol ish olib borishga imkoniyat yaratadigan barcha funktsional elementlari alohida bloklarga bo'lingan. Bloklarni tegishli tarzda tanlab va jamlab, o'qituvchi muayyan kurs fazosini (o'quv muhitini) o'z xohishicha tashkillashtirishi mumkin. Shuning uchun bloklarning soni va tartibi turli kurslarda turlicha bo'lishi mumkin. Bloklar chapda yoki o'ngda joylashishi mumkin.

Blok: Kalendar. Kalendarда kursning avtomatik tarzda yoki qo'lda yaratilgan hodisalari (topshiriqlarni bajarish, test topshirish muddatlari va h.k.) tasvirlanadi. Joriy sana hamma vaqt ramka ichida ajratib ko'rsatiladi. Umumi hodisalar yashil, kurs hodisalari qizil, guruh hodisalari sariq, foydalanuvchi hodisalari ko'k rang bilan belgilanadi. Kalendar menyusiga kirish uchun oy nomi bosiladi. Ochilgan sahifada foydalanuvchi quyidagi ishlarni bajarishi mumkin:

- Kalandarning nastroykasini (sozlash parametrlarini) o'zgartirish;
- Turli turkumdagi (umumi, guruh, kurs, foydalanuvchi) hodisalar ttasvirini ko'rsatish yoki yashirib qo'yish;
- Har bir hodisa bo'yicha batafsil ma'lumot olish;
- Yangi hodisa qo'shish.

